

TIL DARSLARIDA MADANIYATNI QAMRAB OLİSH

Andijon Davlat Chet Tillari Insituti

Ingliz tili va Adabiyoti fakulteti

112-guruh talabasi

Sharobiddinova Saodat Nodirbek qizi

Ilmiy rahbar: Xamidov Nodirbek

Annotatsiya: "Til darslarida madaniyatni qamrab olish" mavzusi, tilni o'rghanishda faqat grammatik va leksikani o'zlashtirish emas, balki madaniy konteksti ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv til o'rghanuvchilarga nafaqat so'zlarni to'g'ri ishlatishni, balki o'sha tilga xos madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni tushunishni ham o'rgatadi. Til o'rghanish jarayonida madaniy o'ziga xosliklarni anglash, global madaniyatni qabul qilish va muloqotda samarali bo'lish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: Til darslari, madaniyat, til o'rghanish, madaniy farqlar, muloqot, urf-odatlar, an'analar, ta'lim, o'rghanish metodlari, madaniy almashuv.

Annotation: The topic "Incorporating Culture in Language Lessons" emphasizes the importance of not only mastering grammar and vocabulary but also considering the cultural context in language learning. This approach teaches learners not only to use words correctly but also to understand the culture, customs, values, and traditions specific to the language. Understanding cultural peculiarities during the language learning process creates opportunities for embracing global culture and enhances effective communication.

Keywords: Language lessons, culture, language learning, cultural differences, communication, customs, traditions, education, learning methods, cultural exchange.

Аннотация: Тема "Включение культуры в уроки языка" подчеркивает важность не только освоения грамматики и лексики, но и учета культурного контекста в процессе изучения языка. Такой подход учит учащихся не только

правильно использовать слова, но и понимать культуру, обычаи, ценности и традиции, присущие данному языку. Осознание культурных особенностей в процессе обучения языку создает возможности для принятия глобальной культуры и способствует эффективному общению.

Ключевые слова: Уроки языка, культуры, изучение языка, культурные различия, общение, обычаи, традиции, образование, методы обучения, культурный обмен.

Kirish

Til tabiiy hodisa bo‘limgani uchun, uning o‘rni ijtimoiy hodisalar doirasida belgilanadi. Biroq bu o‘rinda uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi qandayligini tushunib yetmog‘imiz kerak. Ayni paytda quyidagi savol ko‘ndalang turadi: Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligi va farqlari nimalardan iborat? Tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan umumiyligini jamiyatning tilsiz taraqqiy eta olmasligida ko‘ramiz, zotan, u jamiyat uchun ma’naviyat va madaniyat kaliti sanaladi. Til o‘zining tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlari hamda vazifasiga ko‘ra boshqa ijtimoiy hodisalardan tubdan farqlanadi. Bunga uni jamiyatning huquqiy, diniy, siyosiy qarashlari bilan qiyoslaganimizda to‘liq ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, jamiyat a’zolarining siyosiy, diniy yoki huquqiy qarashlari jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichi (feodalizm, kapitalizm) bilan, uning talablari bilan mushtarak holda yashaydi, til esa bunday xususiyatga ega emas. U har doim, jamiyat a’zolarining siyosiy, diniy hamda huquqiy qarashlaridan qat’iy nazar, ularning barchasiga bir xilda xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, til bazasining ustqurmasi emasligidan dalolat beradi, zero, u ming yillar davomida yashab kelayotgan hodisadir. Shuning uchun ham u jamiyat a’zolarining barchasiga tushunarli bo‘ladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, tilni madaniyat bilan ham to‘g‘ridan to‘g‘ri tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki madaniyat asl ma’nosiga ko‘ra mafkuradir (A.Reformatskiy,16), til esa har qanday mafkura uchun ham bir xilda xizmat qiladi. Biroq har bir millatning tili uning milliy madaniyatini taqozo etadi, zotan, u milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Boshqacha aytganda, millatning madaniyati uning tilida ham ko‘rinadi. Tilning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jamiyatdagi vazifasini uning kishilar o‘rtasida aloqa quroli ekanligida ko‘ramiz. Biroq buni til ishlab chiqarish quroli ham bo‘la oladi deb tushunmaslik kerak. Ba’zi tilshunoslar esa uni ishlab chiqarish quroli bilan tenglashtirishga harakat qiladilar H.Marr). Albatta, bunday g‘aliz g‘oya bilan qo‘shilish qiyin. Ishlab chiqarish quroli mahsulot yetishtiradi va u o‘zining ma’lum bir shakliy ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Til esa, hech narsa ishlab chiqmaydi, u jism tarzidagi shakliy ko‘rinishga ham ega emas; uning strukturasi va sistemasi mavjud, xolos. Ana shu sistema belgilari orqali kishilar o‘zaro fikr almashadilar. Bu esa til bilan tafakkur haqida mulohaza yuritishga undaydi. Albatta, til bilan tafakkur munosabati o‘ta uzviydir. Lekin ular mushtarak hodisalar emas. Buni quyidagilarda ko‘ramiz: Til jamiyatning yutug‘i bo‘lib, u asrlar davomida sayqal topadi va asrlar davomida yashaydi. Tafakkur tilga nisbatan tez o‘sadi va o‘zgaradi, shu bilan birga, u tilsiz yashay olmaydi. Tilsiz tafakkur kishilar o‘rtasidagi muloqot doirasiga chiqa olmaydi. Til qonuniyatlari tilshunoslikda, tafakkur qonuniyatlari esa mantiqda o‘rganiladi. Biroq til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan egizak hodisalardir, tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek tafakkursiz til ham faoliyat ko‘rsata olmaydi. Tilning jamityatda real qo‘llanishi, shubhasiz, nutq jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Nutq faoliyati, o‘z navbatida, ikki jihatga egadir : 1.Individual- psixik. 2.Ob‘yektiv – sotsial. Nutq faoliyatining individual-psixik jihatni, bizningcha, izoh talab qilmaydi. Chunki inson jamiyat a’zolari bilan muloqotga kirishish jarayonida har doim o‘z ichki kechinmalari, maqsadi ifodasi og‘ushida bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, so‘zlovchining ruhiyati nutqiy faoliyat bilan uzviy aloqadordir. Ammo yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida inson nutqini mutlaqo individual xarakterga ega deb aytolmaymiz, zotan, u o‘zining voqylanayotgan muhiti va kimgadir qaratilayotgani bilan sotsial xarakterga ham egadir. Ma’lum bir tilda so‘zlovchi shaxs shu tilning hammaga bir xil xizmat qiluvchi lug‘at boyligini, grammatik qonun-qoidalalarini o‘zlashtirgan bo‘ladi. Bu esa nutqning sotsial xarakteridan dalolat beradi. Til – millatning ma’naviy boyligi, qiyofasining bir bo‘lagi va birdamligi timsolidir. Har bir millat milliy o‘ziga xosligi hamda o‘z madaniyati bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Bunda, shubhasiz, uning tili ham madaniyatining bir ko‘rinishi sifatida namoyon

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo‘ladi. Darhaqiqat, millat madaniyatining yuksalishi, uning tarixiy an’analari, qadriyatlari, xotirasini namoyon etishda tilining ahamiyati beqiyos. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Ma’lumki, til madaniyatning tarkibiy qismi, uning quroli bo‘lishi mumkin, til madaniyat ruhining ifodasi hamda madaniyat mavjudligining o‘ziga xos usuli hamdir. Shu o‘rinda Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Dunyodagi qadimiyligi va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligidagi timsoli, beba ho ma’naviy boylik. Kimdakim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqolalarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizni sehrli qo‘shiqlariga qulog tutsin”, – deya aytgan fikrlari til va madaniyatning o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini yana bir karra isbotlaydi. Qolaversa, biror millatga mansub bo‘lgan til, o‘sha millat, xalq bilan yashaydi va bardavom bo‘ladi. Har bir xalqning o‘z tabiat, turmush sharoiti, urf-odati, madaniyati va san’ati va albatta, har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi uning jondan aziz sevgan hamda faxr-g‘ururi Ona tili ham bo‘ladi. Suvsiz daryo bo‘lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Inson uchun uning kindik qoni tomgan Ona zamini, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning Ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi. Shu sababdan ham tilshunoslikda hamisha til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi masalasiga, millatning o‘ziga xos urf-odati, an’anasi, madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lgan nutqni normaga solish hamda qonun-qoidalarga rioya qilinishi muammolariga e’tibor qaratib kelingan. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini uzoq yillar davomida o‘rganish va tahlil qilish natijasida umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa kabi fanlarning yangidan-yangi qirralari ochildi hamda ular lingvomadaniyatshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, sosiolingvistika, psixolingvistika, mentalingvistika, kognitiv lingvistika, interlingvistika (bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish) sinxron va diaxron lingvistika, makro va mikrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi zamonaviy fanlarning shakllanishi va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanishiga asos bo'lmoqda, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borishga zamin yaratmoqda. Til va madaniyatning bir-biriga munosabatini tavsiflash jarayoni haqida turli xil fikr-mulohazalarga duch kelish tabiiy, chunki bu ikki tushunchaning o'zaro munosabati keng qamrovli va bir necha yillar davomida olimlarning diqqati markazidan o'rin olib kelmoqda. Avvalgi va hozirgi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, til va madaniyat ikkisi bir butunlikni tashkil etadi. Ular o'zaro bir-birini taqazo etadi, shuningdek, bir-birini to'ldirib keladi. O'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy : "Har bir millatning o'zligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", - deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat til-millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchasmasidir.

Xulosa

"Til darslarida madaniyatni qamrab olish" mavzusi bo'yicha xulosa yozishda, til o'rganish jarayonida madaniyatning o'rni va ahamiyatini ta'kidlash lozim. Til faqat so'zlar va grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki har bir xalqning tarixi, qadriyatları, urf-odatlari va an'analalarini ifodalaydigan muhim vositadir.

Madaniyatni qamrab olish, til o'rganishning samaradorligini oshiradi, chunki bu nafaqat so'z boyligini kengaytiradi, balki tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har bir xalqning madaniyati, tilga ularning hayoti, dunyoqarashi, va an'analari singari singib ketgan bo'ladi. Masalan, til darslarida o'ziga xos idiomalar, maqollar, folklor va tarixiy kontekstni o'rganish, talabalarga o'rgatilayotgan tilning haqiqiy ruhini his qilish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, madaniyatni qamrab olish, o'zaro muloqotda madaniy tafovutlarni tushunishga yordam beradi va til o'rganuvchilarini global miqyosda yanada ochiq fikirli va xushmuomalali qilishga xizmat qiladi. Shu tarzda, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki madaniyatlarni bog'laydigan ko'priksifatida ham qarash zarur.

Shu tariqa, til darslarida madaniyatni qamrab olish nafaqat til o'rganish jarayonini boyitadi, balki insonlar o'rtasida madaniy aloqalarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.S.Usmonov. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
- 2.T.A.Amirova, B.A.Ol`xovikov, Yu.V.Rojdestvenskiy. Ocherki po istorii lingvistiki. M., 1975.
- 3.N.A.Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduaazizov. Umumiy Tilshunoslik T., 1979.1 Tilshunoslikga kirish.Qo'llanma Xolmonova.Z.T.T 2000
- 4.Tilshunoslikga kirish M.Irisqulov 1992 Indiana Universiteti
- 5.Dadaboyev H.A tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi T 2004
- 6.Tilshunoslikga kirish .M.Irisqulov 1992 Indiana Universiteti